

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



I
BRENDING
N
O
V
MARKETING
T
BIZNES
I
Y
S
RAQAMLI MARKETING
V
D
ELEKTRON TIJORAT



№3-SON

2025-YIL, MART

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN  ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 670 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 28-martda ruxsat etildi

MUNDARIJA

OZIQ-OVQAT MAXSULOTLARI EKSPORTINI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH YO‘LLARI	9
Yunusov Baxodir Marisovich	
ENHANCING EXPORT STRATEGIES FOR LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES.....	22
Djurabaev Otabek Djurabayevich	
BALIQCCHILIKDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBI VA ICHKI NAZORATINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	29
Dusmurotov Radjabbay Davlatbayevich, Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI	37
Egamshukurov Zayniddin Sodikovich	
KORXONA MAHSULOTLARI ISTE‘MOLCHILARI MOTIVATSIYASIDA CHEKLI ALMASHTIRISH NORMASI MASALALARI	45
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
MINTAQADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH HAMDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA TURIZM INFRATUZILMASI ROLINI BAHOLASH.....	52
Jumaniyazova Sharifa Rashidovna	
DIGITAL MARKETING TOOLS AND BUSINESS DEVELOPMENT STRATEGIES	61
Khudoyarova Ziyoda Maratovna, Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH NAZARIY ASOSLARI VA XORIJIY TAJRIBALARI.....	68
Mirazimova Zulfiya	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA IT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MOHIYATI.....	79
Musirmanov Shohboz Usmon o‘g‘li	
AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA FARAVONLIGINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI VA DINAMIKASI	86
Muxamedova Muslima Maxmudovna	
DEVELOPMENT STRATEGIES FOR GLOBAL COMPANIES IN CURRENT CONDITIONS.....	96
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI.....	104
Qurbonov Alisher Boboqulovich	

ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SHAROITIDA SUG'URTA KOMPANIYALARI UCHUN SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARI	110
Rashidova Dildora Rasul qizi	
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH	116
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna	
TELEKOMMUNIKATSION VOSITALAR ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING INNOVASION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	122
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna	
KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	130
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
KO'P O'LCHOVLI KAMBAG'ALLIK INDEKSINI HISOBLASH BO'YICHA ALKIRE-FOSTER USULI VA TAVSIYALARI	140
Urazbayev Raxmatjon Otajanovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI HAMDA EKOLOGIK, IJTIMOY VA BOSHQARUVNING INVESTITSİYALAR BILAN INTEGRATSIYASI	151
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROSANOAT MINTAQAVIY-IQTISODIY MAJMUASI RIVOJLANISH DINAMIKASINI BAHOLASH	161
Bekchanov Xalmurza Tursinbayevich	
“MAHALLA YETTILIGI” TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IJTIMOY AHAMIYATI	172
Imomov Jamshidxon Odilovich, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi, Islomova Dilrabo Salomovna	
CHAKANA SAVDODA MARKETING VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	194
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li	
RAQOBAT SHAROITIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	200
Nishanbaev Behzod Qahramaonjon o'g'li, Saidov Mash'al Samadovich	
INFLYATSIYA VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK O'RTASIDAGI MUVOZANAT: NAZARIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIK YO'NALISHLAR	210
Baratov Diyorbek Fazliddin o'g'li	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI.....	218
Rajabova Mohichehra Abduxoligovna	

KICHIK BIZNESDA INNOVATSION MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	227
Salayev Jasurbek Komilovich	
OLIY TA‘LIM TASHKILOTLARIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA KADRLARLAR TAYYORLASH STARTEGIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	237
Ahmedova Nigora Temur qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ КЛАСТЕРИЗАЦИИ.....	248
Ахмедова Мадина Шухрат кизи	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ КЛИЕНТСКОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	258
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Маннабова Хулкар Фарход кизи	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	267
Рахимова Тамила Баходур кизи	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	279
Ibodullaev Abror Axrorovich	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	285
Садриддинова Нигора Хусниддиновна	
KIMYO KORXONALARI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA MARKETING STRATEGIYALARINI TANLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI ISHLAB CHIQISH.....	295
Akramov Bo‘ribek Faxriddin o‘g‘li	
PANDEMIYA VA INQIROZLARLARNING IJTIMOIIY SOHALARGA TA‘SIRINI BAXOLASH	304
Jumanov Eshmamat Turdiyevich, Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li, Aslonov Muhammad Tosh o‘g‘li	
QASHQARYO VILOYATINING IQTISODIY O‘SISHINI TA‘MINLASHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O‘ZLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	311
Azimov Allaberdi O‘rinovich, Begaliyeva Madina Abdusamatovna	
TIJORAT BANKLARI MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI	317
Jumanov Eshmamat Turdiyevich, Aslonov Muhammad Tosh o‘g‘li, Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li	
VARYING FORMS OF LEVERAGE ANALYSIS AND ITS USAGE	324
Abduqodirova Mohinur Anvar qizi	

ROLE OF INSTITUTIONAL FRAMEWORKS IN FACILITATING INDIAN INVESTMENT IN UZBEKISTAN.....	336
Abror Kucharov, Jyoti Meshram	
TRANSPORT TIZIMINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	344
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	357
Ergashxodjaeva Shaxnoza Jasurovna, Parpiyeva Gulhayo Ravshanbek qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH OMILLARI	366
Jumanov Ruslanbek Bobojonovich	
THE ROLE OF THE PROFESSION OF GUIDE INTERPRETERS IN TODAY'S WORLD	373
Yaxshibayeva Raziya Imanali qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AN'ANAVIY SANOATDA STRATEGIK QARORLAR QABUL QILISHGA TA'SIRI.....	380
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Tyurahanov Shamsitdin Djamshid o'g'li	
AGROSANOAT MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY INFRATUZILMASINING ROLI VA O'RNI.....	389
Sultonov Sirojiddin Normurolovich	
THE ROLE OF THE STATE IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN	396
Olimova Sevara Komil kizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI: DEHQONCHILIKDAGI NOANIQLIKLARNI VA TAVAKKALCHILIKLARNI BARTARAF ETISH	406
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Mo'minov Muslimbek Mirzoxid o'g'li	
DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN BASED ON INNOVATIVE ACTIVITIES	416
Mukumova Nargis Nuriddinovna, Nasirov Dilshod Farhadovich, Toshimov Ulugbek Hakimovich	
MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA IJTIMOY TARMOQLARNING IQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	424
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna	
ICHKI AUDITDA TAHLILY AMALLARNI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	435
Maxmudova Sharifa Elmurodovna	
THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF ADALINE NEURAL NETWORKS IN FINANCIAL DECISION-MAKING	445
Mirzayev Shoxrux Normurod o'g'li	

AHOLINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	454
Raximov Anvar Norimovich, Annayev Abbos Baxtiyor o‘g‘li	
ULGURJI SAVDO MARKETINGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	460
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
ELEKTR ENERGIYASI UCHUN TARIF REJALARINI LOYIHALASH	470
Samiyev Shohrux Faxriddin o‘g‘li	
TA’LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	480
Adxamova Komilabonu Ilxom qizi, Saidov Mash’al Samadovich	
IJTIMOIIY MUHIM OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLAR NARXLARINING KELGUSI TENDENSIYALARINI PROGNOZLASHNI EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH	489
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	
MARKETING VA LOGISTIKA TAMOYILLARI ASOSIDA HUDUDLARDA AGROLOGISTIKA MARKAZLARINI RIVOJLANTIRISH.....	511
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
SANOAT KLASSTERLARINING SHAKLLARI VA KLASSTER SUBYEKTLARINING O‘ZARO KORPARATIV MUNOSABATLARI	522
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
DEHQON BOZORI SAVDOSINING XARIDORLAR TALAB-EHTIYOJINI QONDIRISHDAGI O‘RNI VA ROLI.....	527
Ivatov Irisbek	
QISHLOQ XO‘JALIGINI IXTISOSLASHISHINING INTENSIV RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI	535
Saburov Jumanazar Saliyevich	
CHAKANA SAVDO FAOLIYATIDA NEYROMARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI	542
Saminjonov Nurilloxon Abdubanno o‘g‘li	
SANOAT KLASSTERLARI – SANOAT SALOHIYATINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHI SIFATIDA	549
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
NEFT VA GAZ RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	555
Xalimov Akmaljon Axmadovich	
OLIY TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	561
Xusniddinov Yorqinjon Muhiddin o‘g‘li	
APPLE KOMPANIYASINING MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH TAHLILI.....	567
Yaxyoxonov Niyozxo‘ja Baxroil o‘g‘li	

RAQAMLI MARKETINGNING ZAMONAVIY TURIZMGA TA’SIRI	575
Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich	
TOSHKENT SHAHRIDA BOLALAR VA O’SIRLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINING ASOSIY TAMOYILLAR.....	584
Islomova Dilrabo Salomovna	
O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA BILIM IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH UCHUN USLUBIY YORDAMNI SHAKLLANTIRISH	591
Xolmirzayev Ulug’bek Abdulazizovich	
OLIY TA’LIM TIZIMINI MIQDOR VA SIFAT KO’RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH MEZONLARI VA KO’RSATKICHLARI.....	602
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi,	
IHTTNING CRAM METODOLOGIYASI ASOSIDA TAHLIL (CHEXIYA TAJRIBASI).....	608
Hakimov Hakimjon Abdullo o’g’li	
SANOAT KORXONALARIDA TEXNIK TARTIBGA SOLISH TIZIMIDA SIFAT MENEJMENTIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	615
Raximov Ilyos Muydinovich	
MILLIY MODANING GLOBAL MADANIY VA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA UYG’UNLIGIGA ASOSLANGAN STRATEGIK MARKETING YONDASHUVI.....	627
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna	
RESEARCH ON THE EFFECTS OF INTEREST RATE, INFLATION RATE AND GROSS DOMESTIC PRODUCT (GDP) ON THE LEVEL OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT (FDI) INFLOWS (EVIDENCE FROM UZBEKISTAN)	637
Azimov Shakhzod	
OLIY TA’LIM MUASSASALARINING INNOVATSION TA’LIM LOYIHALARI ASOSIDA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	649
Eshov Mansur Po’latovich	
ENHANCING RETAIL PERFORMANCE: THE ROLE OF ECO-MARKETING STRATEGIES IN ACHIEVING ECONOMIC EFFECTIVENESS.....	663
Zilola Davronova G’ulomovna	

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Ibodullaev Abror Axrorovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Korporativ moliya va qimmatli

qog‘ozlar” kafedrası dotsenti

E-mail: abroribodullayev@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlar qimmatli qog‘ozlar bozorining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, ularning asosiy xususiyatlari, institutsional asoslari hamda investorlar faoliyatining roli tahlil qilingan. Shuningdek, bozorlardagi texnologik infratuzilma, tartibga solish mexanizmlari va moliyaviy vositalarning diversifikatsiyasi ko‘rib chiqilgan. Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida kapital bozorining samaradorligini oshirishda qanday omillar muhim ekani aniqlangan. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu tajriba milliy qimmatli qog‘ozlar bozorini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: qimmatli qog‘ozlar bozori, rivojlangan mamlakatlar, investorlar, kapital bozori, moliyaviy instrumentlar, institutsional rivojlanish, tartibga solish, moliyaviy infratuzilma, bozor shaffofligi, innovatsion vositalar.

Аннотация

В данной статье проанализированы процессы формирования и развития рынка ценных бумаг в развитых странах, их основные особенности, институциональные основы, а также роль деятельности инвесторов. Также рассмотрены технологическая инфраструктура рынков, механизмы регулирования и диверсификация финансовых инструментов. На основе опыта развитых стран выявлены ключевые факторы повышения эффективности капитального рынка. Этот опыт представляет практическую ценность для совершенствования национального рынка ценных бумаг в таких развивающихся странах, как Узбекистан.

Ключевые слова: рынок ценных бумаг, развитые страны, инвесторы, рынок капитала, финансовые инструменты, институциональное развитие, регулирование, финансовая инфраструктура, прозрачность рынка, инновационные инструменты.

Abstract

This article analyzes the formation and development processes of the securities markets in developed countries, their main characteristics, institutional foundations, and the role of investor activity. It also examines the technological infrastructure of the markets, regulatory mechanisms, and the diversification of financial instruments. Based on the experience of developed countries, the key factors for improving the efficiency of the capital market have been identified. This experience holds practical

significance for enhancing the national securities market in developing countries such as Uzbekistan.

Keywords: securities market, developed countries, investors, capital market, financial instruments, institutional development, regulation, financial infrastructure, market transparency, innovative instruments.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida moliyaviy bozorlarning, xususan, qimmatli qog'ozlar bozorining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash, investitsion faollikni oshirish va kapitalni samarali taqsimlashda qimmatli qog'ozlar bozori muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda bu bozorlarning yuqori darajadagi rivojlanishi iqtisodiy tizimning chuqur moliyaviylashganligini va bozor mexanizmlarining samarali faoliyat ko'rsatishini yaqqol namoyon qiladi.

Rivojlangan davlatlar – AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qimmatli qog'ozlar bozori nafaqat sarmoyadorlar uchun daromad manbai, balki umumiy iqtisodiy taraqqiyotning tarkibiy elementi sifatida shakllangan. Ularning moliyaviy bozorlarida nafaqat aksiyalar va obligatsiyalar savdosi rivojlangan, balki murakkab moliyaviy instrumentlar – derivativlar, birja fondlari (ETF), real aktivlar bilan ta'minlangan vositalar kabi innovatsion moliyaviy mahsulotlar keng qo'llanilmoqda.

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozorining institutsional asoslari, ishonchli nazorat tizimi va investorlarni himoya qilish mexanizmlari yuqori darajada shakllangan. Har chorakda ochiqdanadigan moliyaviy hisobotlar, auditorlik nazorati, shaffoflik, raqamli texnologiyalarga asoslangan savdo platformalari, moliyaviy savodxonlikning yuqoriligi ushbu bozorlarning barqaror va jadal rivojlanishini ta'minlamoqda.

Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, uning institutsional va texnologik xususiyatlari, investorlar faoliyatining roli, shuningdek, ushbu tajribaning O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ahamiyati tahlil qilinadi. Bu orqali xalqaro moliyaviy tajribaning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda milliy kapital bozorini yanada samarali yo'nalishda rivojlantirish uchun nazariy va amaliy xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Rivojlangan mamlakatlar qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishi va rivojlanishi haqida turli ilmiy manbalarda keng yoritilgan. Mazkur adabiyotlar tahlili bozorning institutsional tuzilmasi, tartibga solish tizimi, ishtirokchilar faoliyati, moliyaviy instrumentlar xilma-xilligi va bozor samaradorligiga oid asosiy yondashuvlarni ochib beradi.

Amerikalik iqtisodchi F.S. Mishkin o'zining "Money, Banking, and Financial Markets" nomli asarida rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozorining funksional jihatlarini chuqur tahlil qiladi. U kapital bozorining asosiy vazifalaridan biri sifatida sarmoyalarni resurslarga aylantirish jarayonini ta'kidlab, bozor infratuzilmasining rivojlanishi va tartibga soluvchi institutlarning o'rniga alohida e'tibor qaratadi.

R.A. Entov esa moliyaviy bozorlarning strukturaviy o'ziga xosliklarini tahlil qilib, rivojlangan mamlakatlar tajribasida aksiyalar, obligatsiyalar va derivativlar bozorining o'zaro aloqadorligini asoslab beradi. U shuningdek, institutsional investorlarning – pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlarining – bozor barqarorligiga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlaydi.

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan tayyorlangan hisobotlarda kapital bozorlaridagi global tendensiyalar, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda investorlar huquqini himoya qilish, shaffoflik darajasining yuqoriligi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi alohida ko'rsatib o'tiladi.

OECD "Organisation for Economic Co-operation and Development" tomonidan chop etilgan tahliliy hisobotlarda esa institutsional investorlar va uzoq muddatli sarmoya siyosati o'rtasidagi bog'liqlik chuqur o'rganilgan. Unga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda kapital bozori real sektor bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, AQShning Securities and Exchange Commission (SEC) faoliyati doirasida qimmatli qog'ozlar bozorida tartibga solish, insider trading'ga qarshi kurashish va moliyaviy ochiqlikni ta'minlash mexanizmlari xalqaro andoza sifatida qaraladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa MiFID II (Markets in Financial Instruments Directive II) me'yoriy hujjati moliyaviy bozorlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tartibga solish tizimining muhim qismini tashkil etadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda rivojlangan mamlakatlar qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy xususiyatlarini o'rganish uchun taqqoslov (komparativ), tizimli, tahliliy hamda statistik usullar qo'llanildi.

Birinchidan, taqqoslov usuli yordamida rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya va boshqalar) qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishining O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar bozoridan farqli jihatlarini aniqlab chiqildi. Bu usul orqali turli mamlakatlar tajribasi o'zaro solishtirildi va samarali model elementlari ajratib olindi.

Ikkinchidan, tizimli yondashuv asosida qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibiy elementlari – institutsional muhit, normativ-huquqiy baza, ishtirokchilar, moliyaviy

vositalar va infratuzilma o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilindi. Bu usul bozorni bir butun kompleks tizim sifatida o‘rganish imkonini berdi.

Uchinchidan, tahliliy usul asosida xalqaro tashkilotlarning (Jahon banki, IMF, OECD) rasmiy hisobotlari, statistik ma’lumotlar, moliyaviy tahlil ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Shu orqali bozorning zamonaviy tendensiyalari va samaradorlik darajasi baholandi.

Shuningdek, empirik usullar yordamida ayrim davlatlarning amaliy tajribasi, qonunchilik hujjatlari, fond birjalari faoliyati va investitsiya muhitiga doir ochiq manbalar o‘rganildi.

Tadqiqotda sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg‘unlashtirilib, nazariy xulosalar real amaliyot bilan bog‘langan holda ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida rivojlangan mamlakatlar qimmatli qog‘ozlar bozori bir nechta asosiy ko‘rsatkichlar asosida chuqur tahlil qilindi. Ularning rivojlanish darajasi, ishtirokchilari tarkibi, bozor infratuzilmasi va tartibga solish mexanizmlaridagi xususiyatlar O‘zbekiston sharoiti bilan taqqoslanib, rivojlangan mamlakatlarda fond birjalari savdo hajmi yuqori darajada takomillashgan bo‘lib. masalan, 2023-yil yakunlariga ko‘ra, AQShning NYSE va NASDAQ birjalari umumiy kapitalizatsiyasi 45 trillion dollardan oshdi. Bu bozorlarning yuqori likvidligi investorlar uchun sarmoya kiritish va chiqarishda keng imkoniyat yaratadi. Rivojlangan mamlakatlarda qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi maxsus davlat organlari – masalan, AQShda SEC, Buyuk Britaniyada FCA – bozordagi shaffoflik, adolatli savdo va investor huquqlarini himoya qilish borasida qat’iy nazorat o‘rnatgan. Ushbu tizim moliyaviy firibgarliklarni cheklash va ishonchni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu bo‘limda rivojlangan davlatlar qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish darajasi, asosiy ko‘rsatkichlari va ularning tahliliy muhokamasi keltiriladi. Ma’lumotlar asosida bozor kapitalizatsiyasi, investorlar soni va yillik o‘sish sur‘atlari tahlil qilinadi.

1-jadval.

Rivojlangan mamlakatlar fond bozori asosiy ko‘rsatkichlari¹

Davlatlar	Bozor Kapitalizatsiyasi (trln AQSH dollari)	Investorlar soni (mln)	Yillik o‘sish sur‘ati (%)
AQSh	50.7	120	7.2
Buyuk Britaniya	4.2	35	5.5
Germaniya	2.5	28	4.8
Yaponiya	6.1	45	3.9
Fransiya	2.8	30	4.5

¹ Jahon banki www.worldbank.org, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti): www.oecd.org, www.statista.com, 2023-yil ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Ushbu jadvalda AQSh fond bozori eng yirik kapitalizatsiyaga ega ekanligi ko‘rinib turibdi – 50.7 trillion dollar. Shuningdek, jadvalda eng ko‘p investorlar soni qayd etilgan Yaponiya va Buyuk Britaniya ham yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, yillik o‘sinh sur‘atlari 3.9% va 5.5% atrofida ekanligini ko‘rish mumkin. Boshqa davlatlarda esa o‘sinh sur‘atlari nisbatan pastroq, lekin barqaror.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlangan mamlakatlar qimmatli qog‘ozlar bozori taraqqiyotining asosiy xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu bozorlarda chuqur institutsional asoslar, yuqori darajadagi shaffoflik, raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar asosida faoliyat yuritiladi. Moliyaviy tizimlarning barqarorligi, samarali tartibga solish mexanizmlarining mavjudligi va investitsiya muhitining ochiqligi qimmatli qog‘ozlar bozorining barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi asosiy omillar sifatida maydonga chiqadi. Fond bozorining yuqori darajada rivojlangan bo‘lishi umumiy iqtisodiy o‘sinh, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va xususiy sektorni moliyalashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, kapital bozorining institutsional ishtirokchilari — pensiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari, investitsiya fondlari va banklarsiz to‘liq ishlashi mumkin emas. Bu esa bozor barqarorligini ta‘minlaydi va uning hajmini kengaytiradi.

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlarda raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan savdo tizimlari, onlayn brokerlik xizmatlari va blokcheyn asosidagi moliyaviy vositalarning joriy etilishi fond bozorining zamonaviy shaklga o‘tishini tezlashtirmoqda. Bozorlarda investorlarga qulay muhit yaratish, ularga to‘liq va aniq ma‘lumotlarni taqdim etish orqali investitsiyaviy ishonchni oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu tajriba O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun beqiyos ahamiyatga ega. Milliy qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or mexanizmlar va tizimlarni moslashtirish, xususan, moliyaviy savodxonlikni oshirish, raqamli infratuzilmani mustahkamlash, tartibga solishning xalqaro standartlariga muvofiqligini ta‘minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida qimmatli qog‘ozlar bozorini takomillashtirish — iqtisodiy barqarorlik, kapital oqimini jalb qilish, korxonalar moliyalashtirilishini kengaytirish va makroiqtisodiy o‘sinhni ta‘minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mishkin F.S. Money, Banking, and Financial Markets. 12th Edition. Pearson Education. 2020.
2. Энгов Р.А. Финансовые рынки: структура и механизмы функционирования. Москва: Дело. 2019.
3. OECD Institutional Investors and Long-Term Investment. Rasmiy veb-sayt: www.oecd.org 2023-yil.

4. Jahon banki Capital Markets Development Report. Washington, D.C. 2022-yil.
5. IMF Global Financial Stability Report. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi. 2023-yil.
6. SEC – U.S. Securities and Exchange Commission. Regulatory Framework and Market Supervision Guidelines. www.sec.gov
7. MiFID II Directive. Markets in Financial Instruments Directive II. European Securities and Markets Authority (ESMA). 2018-yil.
8. NASDAQ & NYSE rasmiy statistik ma'lumotlari. www.nasdaq.com, www.nyse.com
9. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-387-sonli Qonuni
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlari. <https://www.imv.uz/>, <https://napp.uz/uz>
11. Розенберг Б.А. Рынок ценных бумаг. Учебник. Москва: Юрайт. 2018 йил.
12. Karimov N.H. "Qimmatli qog'ozlar bozorining institutsional asoslari: xorijiy tajriba va O'zbekiston sharoitida rivojlantirish istiqbollari." // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, №3. 2022-yil.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**